O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Qiziltepa tumani, O‘zbekiston shoh ko'chasi 43-uy

2023 - yil 11 - aprel 78-5-72-Q/23 Qiziltepa tumani hokimligi

Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (J.Majidov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Jumayev)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shartligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman IIB YHXG (D.Yo‘ldoshev)ga mazkur yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Yangi Qiziltepa” gazetasi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari H.Aliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Fayziyev**

Qiziltepa tuman hokimining
2023 yil 11 apreldagi
78-5-72-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1	O‘bekiston shoh ko‘chasi (O‘zbekiston MFY)	4R64(b) “M-37 avtoyo‘lidan shahobcha Qiziltepa t.y.st” a/y. ning 4 km.i yo‘lning o‘ng tomon (Bek magazini ro‘parasi)	1	3.27 “to‘xtash taqiqlangan”—7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 200 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
2	O‘bekiston shoh ko‘chasi (O‘zbekiston MFY)	4R64(b) “M-37 avtoyo‘lidan shahobcha Qiziltepa t.y.st” a/y. ning 4 km.i yo‘lning chap tomon (Katta ekran ro‘parasi)	1	3.27 “to‘xtash taqiqlangan”—7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 300 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
3	A.Navoiy MFY	4R63 “Kogon.sh-Kuymozor suv ombori-Qiziltepa.sh-Toshrabot.q-Arabsaroy.q-Yangiqo‘rg‘on.q” a/y. ning 49.9 km. i yo‘lning chap tomon (21-asr choyxonasi ro‘parasi)da	1	3.27 “to‘xtash taqiqlangan”—7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 200 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
4	A.Navoiy MFY	4R63 “Kogon.sh-Kuymozor suv ombori-Qiziltepa.sh-Toshrabot.q-Arabsaroy.q-Yangiqo‘rg‘on.q” a/y. ning 49.4 km.da yo‘lning o‘ng tomoni(Yusuf ota choyxonasi ro‘parasi)da	1	3.27 “to‘xtash taqiqlangan”—7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 400 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
5	Uzilishkent MFY	4K367 “Uzilishkent.q-Saribosh.q-Xasancha.q-Shaftolixoyk.q” a/y.nung 0 km.da yo‘lning o‘ng tomoni	1	3.4 “yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 4000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
6	Humo MFY	4K367 “Uzilishkent.q-Saribosh.q-Xasancha.q-Shaftolixoyk.q” a/y.nung 4 km.da yo‘lning chap tomoni	1	3.4 “yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 4000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
7	Qal’ayi-Azizon MFY	4K387 “Toshrabot.q-G‘amxo‘r.q” a/y.nung 0 km.da yo‘lning o‘ng tomoni	1	3.4 “yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 7000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
8	G‘amxo‘r MFY	4K387 “Toshrabot.q-G‘amxo‘r.q” a/y.nung 7 km.da yo‘lning chap tomoni	1	3.4 “yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 7000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
9	Bo‘ston MFY	4R183 “Malik temir yo‘l stansiyasi-Bo‘ston.q” a/y.ning 43 km.da yo‘lning o‘ng tomoni	2	3.4 “yuk avtomobillarining va 3.6 traktorlar harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 2000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
10	Gumbaz MFY	4R183 “Malik temir yo‘l stansiyasi-Bo‘ston.q” a/y.ning 45 km.da yo‘lning chap tomoni	2	3.4 “yuk avtomobillarining va 3.6 traktorlar harakatlanishi taqiqlangan” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 2000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan
11	Yangi hayot MFY	4R208 ‘Qiziltepa.sh-O‘rtacho‘l.q-Xurason.q-To‘dako‘l ko‘li” a/y.ning 8 km.da yo‘lning o‘ng tomoni	3	3.20 “quvib o‘tish taqiqlangan va 3.24 yuqori tezlik (50)cheklangan”, 3.21 “quvib o‘tish taqiqlangan hudud oxiri” —7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 2000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan

12	Yangi hayot MFY	4R208 ‘Qiziltepa.sh-O‘rtacho‘l.q-Xurason.q-To‘dako‘l ko‘li” a/y.ning 10 km.da yo‘lning chap tomoni	3	3.20 “quvib o‘tish taqiqlangan va 3.24 yuqori tezlik (50)cheklangan”, 3.21 “quvib o‘tish taqiqlangan hudud oxiri”—7.2.1 “ta’sir oralig‘i” 2000 metrgacha harakatlanish taqiqlangan